TOSHKENT VILOYATIDAGI ZIYORATGOH TOPONIMLARI: TIL, TARIX VA MADANIYAT UYG‘UNLIGIDA

Abduraxmanova Rushana Anvar qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:
f.f.f.d.(PhD),dots. **Q.A.Mo‘ydinov**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida uchraydigan ziyoratgoh nomlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ziyoratgoh toponimlari xalqning diniy e’tiqodi, qadriyatlari va madaniy dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular tilda o‘ziga xos semantik qatlamni hosil qiladi. Tadqiqotda ziyoratgoh nomlarining leksik-semantik, morfologik hamda etimologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu nomlarda xalq og‘zaki ijodi, rivoyatlar va tarixiy shaxslar bilan bog‘liq madaniy-ma’naviy ma’lumotlar aks etishi yoritiladi. Maqola til va madaniyat o‘zaro aloqasini o‘zbek toponimikasi misolida ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ziyoratgoh, toponim, diniy leksika, lingvokulturologiya, semantika, xalq qadriyatlari.

Аннотация. В данной статье анализируются названия святынь (зиёратгохов) в узбекском языке с лингвокультурологической точки зрения. Топонимы, связанные со святынями, отражают религиозные верования, духовные ценности и культурное мировоззрение народа. Исследуются лексико-семантические, морфологические и этимологические особенности данных названий. Особое внимание уделяется проявлению культурных и фольклорных элементов в топонимике. Статья направлена на выявление взаимосвязи языка и культуры через призму узбекской топонимии.

Ключевые слова: святыня, топоним, религиозная лексика, лингвокультурология, семантика, ценности народа.

Abstract. This article provides a linguo-cultural analysis of sacred place names (ziyoratgoh toponyms) in the Uzbek language. These toponyms reflect the people’s religious beliefs, cultural values, and worldview, forming a significant semantic layer of the language. The study examines the lexical-semantic, morphological, and etymological features of ziyoratgoh names, as well as their links with folklore and historical figures. The article aims to demonstrate the interconnection between language and culture through Uzbek toponymy.

Keywords: ziyoratgoh, toponym, religious lexicon, linguoculturology, semantics, cultural values.

Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va ruhiy dunyosining eng muhim ko‘rsatkichi sifatida insoniyat taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutadi. Har bir xalq tili orqali o‘zining dunyoqarashi, qadriyatlari, diniy e’tiqodlari va madaniy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Shu jihatdan o‘zbek tili toponimik tizimi, ayniqsa diniy-ma’naviy ahamiyat kasb etuvchi ziyoratgoh nomlari, xalq

tafakkuri va madaniyatining yorqin namunasidir. Ziyoratgoh toponimlari nafaqat geografik obyektni anglatuvchi nomlar, balki xalqning e’tiqodi, qadimiy tasavvurlari va ijtimoiy ongining tildagi aksidir. Shu sababdan ularni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish — tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada ziyoratgoh nomlarining o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning lingvistik tuzilishi va madaniy mazmuni, shuningdek, diniy leksika bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek toponimik tizimidagi ziyoratgoh nomlari orqali xalq madaniyati, e’tiqodi va tilning o‘zaro munosabatini tahlil qilishdir. Ziyoratgoh atamasi arabcha ziyāra — “borish, yo‘qlash, ziyorat qilish” so‘zidan kelib chiqqan. O‘zbek xalqining tarixiy va diniy hayotida ziyoratgohlar alohida muqaddas maskan sifatida e’tirof etilgan. Q.T. To‘rayevning ta’kidlashicha, toponimlar xalq tafakkurining “muzlagan tarixi” bo‘lib, ular orqali millatning e’tiqodi, qadriyatlari va madaniy qatlami o‘rganiladi.[1]

Toponimika tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, unda joy nomlari orqali xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, diniy e’tiqodi va dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. O‘zbek toponimik tizimida ziyoratgoh nomlari alohida qatlamni tashkil etadi. Bunday nomlar ko‘pincha muqaddas shaxslar, payg‘ambarlar, avliyolar, tarixiy voqealar va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning semantik yuklamasi keng va rang-barangdir. Ziyoratgohlar nafaqat diniy amaliyot obyekti, balki milliy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim makon hisoblanadi. Shu bois ziyoratgoh toponimlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek toponimikasida ziyoratgohlar bilan bog‘liq nomlar keng tarqalgan: Shohimardon, Bibi Seshanba, Ota Ziyorat, Chorbog‘ Ota, Hazrati Imom, Bibi Xalifa, Oyxonim Ziyorati kabi nomlar bunga yaqqol misoldir. Ushbu nomlarda diniy terminlar (bibi, hazrat, ota, imom) bilan bir qatorda xalqning ehtiromi, qadimiy afsona va rivoyatlarining izlari ham saqlanib qolgan. Sh.B. Qurbonov o‘z tadqiqotlarida toponimlar, ayniqsa diniy mazmunga ega bo‘lganlari, xalq mentalitetining lingvokulturologik ko‘rsatkichi sifatida tilning madaniyat bilan uzviy aloqasini ifoda etishini ta’kidlaydi. Shu sababli ziyoratgoh toponimlari xalq tafakkurining madaniy yodgorligidir. O‘zbek ziyoratgoh toponimlari leksik, morfologik va semantik jihatdan boy tizimni tashkil etadi. Ularning ko‘pchiligi ikki komponentli tuzilishga ega. Masalan, Bibi Seshanba, Shohimardon, Ota Ziyorat, Hazrati Imom va hokazo. Leksik tarkib nuqtai nazaridan “bibi”, “ota”, “hazrat”, “imom” kabi diniy leksik elementlar ziyoratgoh nomlarining asosiy semantik yadrosini tashkil qiladi. Bu birliklar diniy e’tiqod, muqaddaslik, hurmat ma’nolarini ifodalaydi. Morfologik jihatdan, bunday toponimlar so‘z birikmalari yoki qo‘shma so‘zlar shaklida hosil bo‘lgan. Masalan, Ota Ziyorat — sifatlovchi birikma, Shohimardon esa “shoh” va “mardon” komponentlarining qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimdir. Semantik jihatdan, ziyoratgoh nomlari ikki qatlamli ma’noga ega: biri — geografik obyektni anglatuvchi nominativ ma’no, ikkinchisi — xalqning diniy-madaniy tasavvurlarini ifodalovchi ma’no. Shu sababli bu nomlar nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturologik tahlilni ham talab etadi. Sh.B. Jumayeva o‘z asarlarida diniy leksikaning xalq dunyoqarashidagi o‘rni haqida so‘z yuritarkan, “ziyorat” so‘zi bilan bog‘liq toponimlar xalq tafakkuridagi “muqaddas joy”[2] tushunchasini ramziy shaklda aks ettiradi, deya ta’kidlaydi. Ziyoratgoh nomlarida xalq e’tiqodi, qadimiy an’analari, diniy afsonalari bilan bog‘liq madaniy qatlamlar mujassam. Masalan, Bibi Seshanba toponimi xalq orasida ayollar himoyachisi sifatida e’tirof etilgan afsonaviy ayol obraziga bog‘liq. Shohimardon esa xalq rivoyatlarida Hazrati Ali nomi bilan bog‘lanadi. Bu

[1] To ‘rayev Q.T, Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari. 2023.
[2] Jumayeva Sh.B. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari. 2023.

nomlar xalq og‘zaki ijodi, islom dini va qadimiy turkiy tasavvurlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Ziyoratgoh nomlari orqali xalqning muqaddaslik haqidagi qarashlari, tabiatga ehtiromi, o‘tmish avlodlarga hurmati tildagi ramziy obrazlarda namoyon bo‘ladi. Til va madaniyat bir-birini boyituvchi, uzviy bog‘langan tizimlardir. Lingvokulturologik yondashuvda har bir so‘z, ayniqsa toponim, madaniy ma’noni o‘zida mujassam etgan belgidir. O‘zbek ziyoratgoh nomlarida xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy tasavvurlari va milliy ruhiyatining tildagi ifodasi ko‘rinadi. Masalan, Ota Ziyorat so‘zida ota so‘zining semantik doirasi hurmat, baraka, himoya ma’nolari bilan boyitilgan bo‘lsa, Hazrati Imomda diniy obro‘ va ilohiylik ifodasi mavjud. Shu bilan birga, ko‘plab ziyoratgoh nomlari hududiy o‘ziga xoslikni ham bildiradi: Surxondaryoda “Ota”, Farg‘onada “Bibi”, Qashqadaryoda esa “Hazrat” komponentlari ko‘proq uchraydi. Bu esa ziyoratgoh toponimlarining xalqning hududiy-madaniy identitetini ifodalovchi belgi sifatida ahamiyatini oshiradi. Ma’lumki, ziyorat- diniy madaniyatning o‘ziga xos qadimiy ko‘rinishi bo‘lib, barcha dinlarda asrlar davomida saqlanib kelayotgan marosimlardan biri hisoblanadi. Masalan, xristianlar Falastinda joylashgan muqaddas joylar, musulmonlar- Makkani, buddistlar- baland tog‘li Lxasa shahrini ziyorat qiladi. Ziyorat qilish faqatgina maqbaralar emas, balki islom dinida qabrlarni ziyorat qilish savob tarzida izohlanadi. Hadislarda yozilishicha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Qabristonlarni ziyorat qiling, zero u oxiratni eslatadi”,-deganlar.[3] Islom dinining hanafiylik mazhabida ziyorat qilish savobli ish, deb qaraladi.[4]

Toshkent viloyatidagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi o‘ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan afsona va rivoyatlarga boy bo‘lib, asosan, diniy hissiyotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli ham ziyoratchilar o‘z ruhiyati va shaxsiy ehtiyojidan kelib chiqib, ziyoratgohlarga tashrif buyuradi. Toshkent viloyatida joylashgan ziyoratgohlar bilan bog‘liq qarashlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hazrati Xizr bilan bog‘liq qarashlar;
2. Islom dinidagi mashhur sahobalar va ularning izdoshlari bilan bog‘liq tasavvurlar;
3. Avliyolar bilan bog‘liq qarashlar;
4. Ayol tasviridagi kultur bilan bog‘liq qarashlar(chiltonlar va qirqqizlar, momolar bilan bog‘liq);
5. Muqaddas buyumlar bilan bog‘liq qarashlar;
6. Shayx (sayyid, xo‘ja va eshonlar) nomi bilan bog‘liq qarashlar.

1. Hazrati Xizr nomi bilan bog‘liq qarashlar. Musulmon mifologiyasiga ko‘ra, to‘rtta “abadiy yashovchi” payg‘ambarlar- Iso, Ilyos, Idris va Xizr bo‘lib, ularga odamlarning Allohga bo‘lgan ishonchini saqlab turish uchun abadiy hayot berilgan. Arab tilida al-Xidr, fors tilida Xizr- afsonaviy payg‘ambar va ko‘plab so‘fiylik ta’limoti shayxlarining ustozi hisoblanadi.[5] Toshkent viloyati Ohangaron tumani Qoraxitoy mahalla fuqarolar yig’ini hududida Hazrati Xizr qadamjosi mavjud bo‘lib, u yerdagi toshda saqlanib qolgan oyoq izi Xizr buvaga tegishli, degan rivoyatlar mavjud. Shuningdek, Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi Jilbuloq va Quloq ziyoratgohlarining vujudga kelishi ham Hazrati Xizr nomi bilan birga talqin etiladi.

2. Islom dinidagi mashhur sahobalar va ularning izdoshlari bilan bog‘liq tasavvurlar; Sahobalarning Toshkent viloyatida bo‘lganliklari to‘g‘risida aniq bir tarixiy ma’lumotlar bo‘lmasa-da, islom dinini targ‘ib etuvchilar mahalliy diniy e’tiqodlarga qarshi kurashishda ularning nomlaridan foydalanishgan. Hazrat Ali bilan bog‘liq qarashlar ham mavjud. Islom dini

[3] Islom ensiklopediyasi. Toshkent. O‘zME. 2004.
[4] Islom ensiklopediyasi/ Z. Husniddinov tahriri ostida. Toshkent. O‘zME. 2004.
[5] Rahimov R. Al-Xadir/Ислам на территории бывшей Российской империи. 1999.

lashkarboshisi, arab halifaligining to‘rtinchi va so‘ngi halifasi, islom dini payg‘ambari Muhammad (s.a.v)ning kuyovi, xalq orasida “Shohimardon”, ya’ni “Mardlar shohi” nomi bilan mashhur Ali ibn Abu Tolib nomi bilan muqaddas qadamjolar Markaziy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan. O‘rta Chirchiq tumani Nurafshon shahrining markazidagi Axtam sahoba qabristonining payda bo ‘lishi ham Hazrati Ali nomi bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

3. Avliyolar bilan bog‘liq qarashlar. Bunday ziyoratgohlarning vujudga kelishiga tabiat, oila, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik homiylari hisoblangan kultlarga bo‘lgan ishonch hamda e’tiqodlar turtki vazifasini o‘tagan. Ayniqsa, tasavvuf ta’limoti nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar keng tarqalgan. Masalan:

Jarboshi Avliyo(Bo‘stonliq)
Terakli ota(Bo‘stonliq)
Said ota(Parkent)
Sakson ota(Yuqori Chirchiq)
Iyk ota(Yuqori Chirchiq)
Uvak ota(Ohangaron)
Zangi ota(Zangiota)
Gumbaz bobo(Angren)
G‘oyib ota(Toshkent)
Qo ‘chqor ota(Bo‘ka)

Toshkent viloyati avliyolari nomiga qo‘shib aytilgan “Ota” so‘zi nafaqat hurmat, balki martaba belgisi ham hisoblangan. Ya’ni, Xo‘ja Ahmad Yassaviy silsilasiga doxil bo‘lganlar sulukda martaba hosil qilsalar, ularni “Ota” deydilar. Masalan, Zangi ota, Sadr ota, Badr ota, Shoabdumalik ota va h.k.[6]

4. Ayol kulti bilan bog‘liq qarashlar. Markaziy Osiyo xalqlari diniy qarashlarida Hasan va Husanning onasi, payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ning qizi Fotima kulti ham muhim rol o‘ynagan. Islom ta’siri ostida Bibi Fotima ayollar homiysi sifatida qaralgan. Avvallari ayollar sog‘ligida muammo bo‘lganda, Bibi Fotimaga is chiqarilgan va xayr-ehson qilingan[7].

Chiltonlar bilan bog‘liq qarashlar. Voha ziyoratgohlarida chiltonlar bilan bog‘liq qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, Chilmayram, Chilton buva (Ohangaron t.) ziyoratgohlari bunga misol bo‘la oladi. “Chilton” atamasi fors-tojikcha “chixilton” so‘zidan olingan bo‘lib, “40 ta Farishta, ruh” ma’nolarini anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ular quyidagicha ta’riflanadi: Chilton- “afsonaviy qirqta ruh” yoki “odam” ma’nolarini anglatib, g‘ayritabiiy, ko‘zga ko‘rinmaydigan va bir-biridan ajralmaydigan mahluqotdir.[8]

5. Muqaddas buyumlar bilan bog‘liq qarashlar. Islom olamida payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ning soch yoki soqol tolasi muqaddas hisoblanib, ushbu ulug‘ zot umrlari davomida to‘rt marta soch oldirganlar. Sochlari tabarruk qilinib, sahobalari tomonidan bo‘lib olingan. [9] Toshkent viloyati Piskent tumanida ham mo‘yi muborak saqlanib kelinayotgani ham ma’lum.[10] Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, Toshkent viloyati ziyoratgohlaridagi muqaddas buyumlar bilan bog‘liq qarashlarning kelib chiqishi fetishizm bilan bog‘liq bo‘lib, uning zamirida avliyolarning xislatlari ularning buyumlarida saqlanib qoladi, degan qarashlar mujassamlashgan.

[6] Muhammadkarimov A., Obidov A., Iskandarov Z. Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari. Toshkent. 2016.
[7] Jumayeva Sh.B. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari. 2023.
[8] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. O‘zME. 2008.
[9] Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. Toshkent. 1991.
[10] Dala yozuvlari. Toshkent viloyati: Piskent tumani. 2020.

Baliqlar bilan bog‘liq qarashlar. Toshkent vohasida ko‘l va buloqlar bilan bog‘liq ziyoratgohlar ko‘p va ularda baliqlarni ilohiylashtirish keng tarqalgan. Shulardan biri, Zangiota ziyoratgohidir. Ushbu ziyoratgohda mahalliy aholining qarashlariga ko‘ra, ziyoratgohdagi baliqlarni o‘ldirish yoki iste’mol qilish gunoh sanaladi.

6. Shayx (sayyid, xo‘ja va eshonlar) nomi bilan bog‘liq qarashlar. Toshkent viloyatidagi mozorlar, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarda shayxlik qilish asosan avloddan-avlodga o‘tib kelgan shajara saqlangan bo‘lib, unda shayxlarning avlodlari qayd qilingan. Jumladan, Bekobod tumanidagi Buzrukbuva ziyoratgohida shayxlikning avloddan-avlodga o‘tishi bugungi kungacha saqlangan.

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayanib, shuni ta’kidlash mumkinki, Toshkent viloyatidagi ziyorat, ziyoratgohlar va qadamjolar to‘g‘risidagi qarashlar hamda tasavvurlar asrlar davomida shakllanib, bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Toshkent viloyati ziyoratgohlari tarixi, vazifasi, ahamiyati va me’moriy yechimira ko‘ra, bir-biridan farq qiladi. Toshkent viloyati ziyoratgohlari rivojlanish tarixiga ko‘ra, quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. **Islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo‘lgan diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ziyoratgohlar va ziyorat marosimlari.** Mazkur davrda asosan fetishizm, animizm, totemizm, shamanlik, Ko‘k Tangri e’tiqodi, zardushtiylik, nasroniylik va moniylik kabi diniy qarashlar bilan bog‘liq muqaddas kadamjo hamda ziyoratgohlar shakllangan bo‘lib, ularning orasida qoya tosh rasmlari eng qadimiysi hisoblanadi. Shuningdek, Ohangaron tumanidagi Qorixona va Kushbulok yodgorliklari buddaviylik, xristian hamda Mitra e’tiqodi bilan bog‘liq ibodatxonalarga ega bo‘lgan.

Bugungi kungacha ziyoratgohlar va ziyorat marosimlarida qadimiy e’tiqodlar izlari saqlanib qolgan. Jumladan, Bo‘stonliq tumanida Balogardon, Qadamjo, Ohangaron tumanidagi Parpiota, Payg‘ambar ota Piskent tumanidagi Qirk-qiz va Qo‘lota kabi ziyoratgohlar bunga misol bo‘ladi.

2. **VIII asr boshlaridan XIV asrgacha bo‘lgan davr.** Ushbu davrda arablar istilosi natijasida vohaga islom dinining kirib kelishi va mahalliy ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlarining islom aqidalari bilan simbiozi yuz beradi. Ya’ni, barcha qadamjo va ziyoratgohlar Qur’oni Karimda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlar, sahobalar hamda xalifalar nomi bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Hazrati Masjid Ali, Axtam Sahoba, Zarkent ota va Ikrima ota ziyoratgohlari bunga misol bo‘ladi.

3. **XIV asrdan XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr.** Tasavvuf ta’limotining keng tarqalishi va avliyolarga bo‘lgan ehtirosning yuksakligi bois Toshkent vohasida XIV asrda so‘fiylarning memorial-diniy ziyoratgohlari keng tarqalgan. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, tasavvuf shayxlari dafn qilingan qabristonlar muqaddas hisoblanib, ziyoratgohlarga aylanib borgan. Chunonchi, Toshkent viloyati hududida asosan turkistonlik Xo‘ja Ahmad Yassaviy va yassaviylik ta’limotining izdoshlari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar bunyod qilingan. Ushbu ziyoratgohlar childakxona, masjid va xonaqo kabi qo‘shimcha binolar bilan boyitilib, me’moriy kompleksga aylantirilgan. Jumladan, Pozbaumalik ota va Bobohon ota kabi ziyoratgohlar childakhonalari bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, Zangiota hamda Qizilmozor kabi ziyoratlar o‘rta asr me’morchiligiga oid obidalar hisoblanadi.

4. **Mustaqillik yillari.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng tabarruk qadamjo va ziyoratgohlar “qayta tug‘ilish” davrini boshdan kechirdi: buzilib ketgan maqbaralar sharqona me’morchilik an’analari asosida qayta tiklanib, ziyoratga keluvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. So‘nggi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida respublika miqyosida mavjud tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarni o‘rganish, ziyoratgohlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda rekonstruksiya qilish ishlari alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, ziyorat marosimlarining o‘ziga xos jihatlari, marosimlarning vujudga kelishidagi endogen va ekzogen omillar, marosimlarning insoniyat ruhiyatiga ta’siri kabi xususiyatlarni o‘rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Toshkent viloyatidagi avliyolarga atab qurilgan mashhur me’moriy majmualardan biri Zangiota ziyoratgohi bo‘lib, an’anaviy tarzda bunday majmualar asosan hovuz, avliyo maqbarasi, chillaxona, marosimlar o‘tkazishga mo‘ljallangan zal, masjid, shayx oilasi bilan yashashi uchun xonalar, Qur’oni Karim qiroatxonasi, muridlar va g‘ariblar uchun hujralardan iborat bo‘lgan. Toshkent viloyatida musulmon me’morchiligining yorqin namunalaridan biri bo‘lgan mazkur ziyoratgoh eski Samarqand yo‘li bo‘ylab, Toshkentdan 16 km uzoqlikda, mazkur mazor nomi bilan ataluvchi Zangiota shaharchasida joylashgan.

Zangiota ziyoratgohining bunyod etilish tarixi Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Tarixdan ma’lumki, Toshkent vohasi qadimdan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim markaz vazifasini bajargan. Jumladan, Amir Temur davrida ham Toshkent mustahkam qo‘rg‘on bo‘lib, Sohibqironning yurishlari davomida harbiy qo‘shinning to‘planish manzili hisoblangan. Sarkarda 1361, 1363 va 1367-yillarda Toshkentda bo‘lgan. 1391 yilda Qipchoqlarga qarshi yurish davrida Amir Temur kasalligi sabab Toshkentda davolanishga majbur bo‘lgan, 1396-yilda esa Toshkent orqali Chinozga borgan. Tarixiy manbalarda 1397-yilda Turkistonga Amir Temur tashrifi Xo‘ja Ahmad Yassaviyga atab maqbara bunyod etilishi bilan bog‘liq holda talqin etiladi.Toshkentdagi Zangiota ziyoratgohining qurilish tarixi ham Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi nomi bilan bog‘lanadi. Amir Temur tomonidan Zangiota maqbarasi qurilishi bilan bog‘liq bir qator taxminlar mavjud. Birinchi farazga ko‘ra, Amir Temur Toshkentda bo‘lgan vaqti kasal bo‘lib tuzalganidan so‘ng, avliyoga minnatdorlik sifatida maqbara bunyod ettirgan. Ikkinchi farazga ko‘ra, shonli yirik diniy markazning mavjud emasligi sababli, maqbarani bunyod etish uchun farmon bergan. Mo‘g‘ul istilosidan so‘ng yarim asr davomida bu yerda masjid yoki maqbara qurilmaganligi sababli ushbu inshootni qurdirgan. Uchinchi farazga ko‘ra, Amir Temurning pirlar va avliyolarga bo‘lgan cheksiz hurmati sabab bo‘lgan. Sohibqiron vafot etgan avliyolarning homiyligini ta’minlash, turkiylar odati bo‘yicha mashhur ulamolar qabrlari ziyoratga borish hamda xalq bilan muloqot qilish an’anasiga qat’iy amal qilgan. Mirzo Ulug‘bek bobosi tomonidan olib borilgan qurilish ishlarini davom ettirib, Zangiota majmuasining asosiy kirish qismiga darvoza, shuningdek, halimxona va ziyoratchilar uchun hujralar qurish ishlarini yakuniga yetkazdi. XV asrning birinchi yarimida Shosh (Toshkent vohasi) Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek hukmronligi ostidagi hududlardan biri edi.

Toshkent viloyati ziyoratgohlari toponimlari o‘zbek tilining boy lug‘aviy merosi, tarixiy voqealar va madaniy an’analar uyg‘unligini aks ettiruvchi noyob manbalardan biridir. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatdagi ziyoratgohlar va qadamjolar rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan o‘tgan. Shu tariqa, Toshkent viloyati ziyoratgohlari nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki tarix, til va madaniyat uyg‘unligini aks ettiruvchi markaz sifatida e’tiborga loyiqdir. Ziyoratgohlar va ularning toponimlari orqali viloyatning qadimiy diniy e’tiqodlaridan tortib, islomiy ta’limot va tasavvuf an’analari, mustaqillik davri rekonstruksiya ishlari va zamonaviy ziyorat turizmi rivojlanishigacha bo‘lgan jarayonni o‘rganish mumkin. Shu jihatdan, Toshkent viloyati ziyoratgohlari nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba, balki hudud madaniy merosi va xalqaro turizm rivoji uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alixonto‘ra S. Tarixi Muhammadiy. Toshkent, 1991.
2. Dala yozuvlari. Toshkent viloyati: Piskent tumani. Toshkent, 2020.

3. Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zME, 2004.
4. Islom ensiklopediyasi / Z. Husniddinov tahriri ostida. Toshkent: O‘zME, 2004.
5. Jumayeva Sh.B. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari, 2023.
6. Muhammadkarimov A., Obidov A., Iskandarov Z. Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari. Toshkent, 2016.
7. Rahimov R. Al-Xadir / Ислам na territorii bivshey Rossiyskoy imperii, 1999.
8. To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari, 2023.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zME, 2008.